



*Farida R. HOSILOVA,
PhD, dotsent v.b., O‘zMU fakultetlararo tillar kafedrası*

Pedagogika fanlari nomzodi, professor S.Malikova taqrizi asosida

OLIIY TA‘LIMDA TALABALARNING ILMIIY-TADQIQOT FAOLIYATINI TASHKIL ETISH METODOLOGIYASINI TAKOMILLASHTIRISH

Аннотация

Mazkur maqolada oliy ta‘limda talabalarning ilmiy-tadqiqot faoliyatini tashkil etish metodologiyasini takomillashtirish yo‘llari tahlil qilinadi. Mavzuning dolzarbligi ta‘lim, fan va amaliyot integratsiyasini kuchaytirish hamda talabalarda mustaqil tahliliy fikrlashni rivojlantirish zarurati bilan belgilanadi. Tadqiqot normativ-huquqiy hujjatlar va xalqaro ilmiy adabiyotlar sifat tahliliga asoslandi. Natijada diagnostik, motivatsion, metodik, loyihaviy, prezentatsion va refleksiv komponentlardan iborat bosqichli model taklif qilindi. Talabalarning ilmiy-tadqiqot faoliyati uzviylik, mentorlik, akademik halollik, raqamli qo‘llab-quvvatlash va natijalarni baholash tamoyillari asosida tashkil etilishi lozimligi asoslab berildi.

Kalit so‘zlar: oliy ta‘lim, talabalarning ilmiy-tadqiqot faoliyati, tadqiqot metodologiyasi, akademik halollik, mustaqil ta‘lim, mentorlik.

IMPROVING THE METHODOLOGY FOR ORGANIZING STUDENTS’ RESEARCH ACTIVITIES IN HIGHER EDUCATION

Annotation

The article analyzes ways to improve the methodology for organizing students’ research activities in higher education. Its relevance is linked to the need to integrate education, science, and practice, and to develop students’ independent analytical thinking. The study is based on qualitative analysis of legal acts and international literature on undergraduate research and the teaching–research nexus. As a result, a staged model is proposed that includes diagnostic, motivational, methodological, project, presentation, and reflective components. The article argues that effective student research should be organized on the basis of continuity, mentoring, academic integrity, digital support, and outcome assessment.

Key words: higher education, students’ research activities, research methodology, academic integrity, independent learning, mentoring.

СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ МЕТОДОЛОГИИ ОРГАНИЗАЦИИ НАУЧНО-ИССЛЕДОВАТЕЛЬСКОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ СТУДЕНТОВ В ВЫСШЕМ ОБРАЗОВАНИИ

Аннотация

В статье анализируются пути совершенствования методологии организации научно-исследовательской деятельности студентов в высшем образовании. Актуальность темы связана с необходимостью интеграции образования, науки и практики, а также развития самостоятельного аналитического мышления студентов. Исследование основано на качественном анализе нормативно-правовых актов и международной литературы по undergraduate research и teaching–research nexus. В результате предложена поэтапная модель, включающая диагностический, мотивационный, методический, проектный, презентационный и рефлексивный компоненты. Обосновано, что эффективная исследовательская деятельность студентов должна строиться на принципах непрерывности, наставничества, академической добросовестности, цифрового сопровождения и оценки результатов.

Ключевые слова: высшее образование, научно-исследовательская деятельность студентов, исследовательская методология, академическая добросовестность, самостоятельное обучение, наставничество.

Kirish. Oliy ta‘limning zamonaviy modeli tayyor bilimlarni uzatish bilan cheklanmaydi; u talabani tadqiqotga kirishi, dalil bilan ishlashi, muammo qo‘yishi va xulosa chiqarish qobiliyatini rivojlantirishni talab qiladi. O‘zbekiston Respublikasining “Ta‘lim to‘g‘risida”gi Qonunida ta‘lim oluvchilarning ilmiy-tadqiqot, tajriba-konstruktorlik, ilmiy-texnikaviy, eksperimental va innovatsion faoliyatda ishtirok etish huquqi belgilangan [1]. “Ilm-fan va ilmiy faoliyat to‘g‘risida”gi Qonunda esa yoshlarni ilmiy faoliyatga jalb etish hamda ta‘lim, fan va ishlab chiqarishning uzviy bog‘liqligini ta‘minlash asosiy yo‘nalishlar qatorida ko‘rsatilgan [2].

Biroq amaliyotda ta‘lim–ilm–fan–ishlab chiqarish o‘rtasida uzilishlar saqlanib qolmoqda, ilmiy izlanishlarning real ehtiyojlar bilan bog‘liqligi yetarli emasligi qayd etilgan [3]. Oliy ta‘lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi iqtidorli yoshlarni ilmiy-tadqiqot ishlariga jalb etish natijadorligi pastligi va talabalarda mustaqil, tanqidiy

hamda ijodiy fikrlashni rivojlantirishga qaratilgan metodikalarni kuchaytirish zarurligini ko‘rsatadi [4]. 2025-yilda oliy ta‘limdagi ilmiy salohiyatni 55 foizga chiqarish maqsadi qo‘yilgani bu masalaning strategik ahamiyatini yana bir bor tasdiqlaydi [5]. Mazkur maqolaning maqsadi talabalarning ilmiy-tadqiqot faoliyatini tashkil etishning takomillashtirilgan metodologik modelini ishlab chiqishdan iborat.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Xalqaro adabiyotlarda talabalarni ilmiy izlanishga jalb etish undergraduate research va teaching–research nexus tushunchalari orqali tushuntiriladi. Healey va Jenkins yondashuvining Advance HE tomonidan taqdim etilgan xulosasida barcha bakalavriat talabalari tadqiqot va izlanish orqali o‘rganish tajribasiga ega bo‘lishi kerakligi ta‘kidlanadi [6]. Bu yondashuv talabani ilmiy-tadqiqot faoliyatini cheklangan guruhlar uchun imtiyoz emas, balki oliy ta‘limning umumiy pedagogik mexanizmi sifatida ko‘radi.

Ahmad va Cruzning 2011–2021-yillardagi 67 tadqiqotni qamrab olgan tizimli sharhi mentorlik, loyiha ishlari, kichik guruhlar, refleksiya va tadqiqotga asoslangan o'qitish talabalarining ilmiy tayyorgarligini kuchaytirishini ko'rsatadi [7]. Bergamini va hammualliflar esa adabiyotlar sharhi asosida mustaqil mavzu tanlash, kichik guruhda ishlash va taqdimot qilish tadqiqot ko'nikmalarini rivojlantirishga ijobiy ta'sir ko'rsatishini isbotlaydi [8]. Musthafa va Sajila ta'lim hamda tadqiqot bog'liqligi talaba o'qishini yaxshilashini qayd etsa [9], Macheridis ushbu bog'liqlikni his etish fan yo'nalishi va institutsional kontekstga qarab farqlanishini ko'rsatadi [10]. Demak, samarali metodologiya umumiy tamoyillar bilan birga kontekstga moslashuvchan bo'lishi lozim.

Adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, xalqaro miqyosda talabalar tadqiqotchiligi rivojlantirishga oid yondashuvlar yetarlicha ishlab chiqilgan. Biroq O'zbekiston oliy ta'limi sharoitida normativ-huquqiy asoslar, mentorlik, raqamli infratuzilma, o'quv-metodik integratsiya va natijaviylik monitoringini birlashtirgan yaxlit modelga ehtiyoj mavjud. Mazkur maqola aynan shu bo'shliqni to'ldirishga qaratilgan.

Tadqiqot metodologiyasi. Tadqiqot sifat tahliliga asoslangan nazariy-amaliy ish bo'lib, unda tizimli yondashuv, qiyosiy tahlil, kontent-tahlil, strukturaviy-funksional modellashtirish va ilmiy umumlashtirish metodlaridan foydalanildi. Dastlab normativ-huquqiy hujjatlar hamda davlat dasturlari o'rganildi. Keyin talabalarining ilmiy-tadqiqot faoliyati bo'yicha xalqaro ilmiy adabiyotlar tahlil qilindi. Yakuniy bosqichda ushbu ikki yo'nalish sintezi asosida universitet amaliyotiga mos takomillashtirilgan metodologik model ishlab chiqildi. Metodologiyaning ishonchliligi turli turdagi manbalarni o'zaro qiyoslash, aniqligi esa tayanch tushunchalarning aniq operatsion mazmunda qo'llanishi bilan ta'minlandi.

Tahlil va natijalar. Tahlil natijalari talabalarining ilmiy-tadqiqot faoliyatini samarali tashkil etish uchun kamida besh tayanch komponent zarurligini ko'rsatdi: normativ-institutsional asos, o'quv-metodik integratsiya, mentorlik va ilmiy hamkorlik, raqamli ta'minot, monitoring hamda refleksiya. Ushbu komponentlar talabaning ilmiy-tadqiqot faoliyatini epizodik tadbirlardan tizimli kompetensiyaga aylantiradi.

Birinchi komponent – normativ-institutsional asos. Talabaning ilmiy faoliyatda ishtirok etish huquqi va yoshlarni ilmiy faoliyatga jalb etish vazifasi qonunchilikda mustahkamlangan [1;2]. Shu sababli universitetlar

talabalarining ilmiy-tadqiqot faoliyatini ixtiyoriy tashabbus darajasida emas, balki ichki siyosat darajasida boshqarishi kerak. Fakultet va kafedra kesimida yo'l xaritasi, mas'ullar va baholash mezonlari bo'lishi zarur.

Ikkinchi komponent - o'quv-metodik integratsiya. Ilmiy-tadqiqot faoliyati o'quv rejani tashqi qo'shimchasi emas, balki fanlar, kurs ishlari, mini-tadqiqotlar, amaliy topshiriqlar va bitiruv ishlari bilan bosqichma-bosqich bog'lanishi kerak. Aynan shu yondashuv adabiyot bilan ishlash, muammo qo'yish, metod tanlash va ma'lumotlarni tahlil qilish kabi tayanch ko'nikmalarni uzviy shakllantiradi [4;6;7].

Uchinchi komponent - mentorlik va ilmiy hamkorlik. Ilmiy rahbarning faol ishtiroki, kichik guruhlarda ishlash va hamkor tashkilot bilan aloqador loyiha talabaning motivatsiyasi hamda natijadorligini oshiradi [7–10]. Shu asosda "ustoz–talaba–guruh–hamkor tashkilot" formatidagi ko'p pog'onali mentorlik tizimi taklif etiladi. Mazkur model tadqiqotning bilimiy, kommunikativ va amaliy qirralarini birlashtiradi.

To'rtinchi komponent - raqamli va axborot-resurs ta'minoti. Sifatli elektron kutubxona, ma'lumotlar bazalari, antiplagiat tizimi, bibliografik menejerlar va universitetning ichki raqamli platformalari bo'lmasa, talabaning ilmiy-tadqiqot faoliyati to'liq shakllanmaydi. Shu sababli akademik yozuv, ma'lumotlar bilan ishlash va akademik halollik bo'yicha qisqa modul-treninglarni joriy etish maqsadga muvofiq.

Beshinchi komponent - monitoring va refleksiya. Talabaning ilmiy faolligini faqat tayyor maqola bilan baholash yetarli emas. Jarayon bo'yicha indikatorlar - muammo qo'yish sifati, manba tanlash, metod asoslanganligi, tahlil, yozuv va taqdimot ko'nikmalari - muntazam kuzatilishi kerak. Natija bo'yicha indikatorlar esa tezis, maqola, konferensiya, startap yoki amaliy tavsiya ko'rinishida aks etishi mumkin.

Mazkur besh tayanch komponent o'zaro integratsiyada ishlaganda talabalarining ilmiy-tadqiqot faoliyati barqaror institutsional mexanizmga aylanadi. Bunday tizim talabaning faqat yakuniy ilmiy mahsulot yaratishiga emas, balki tadqiqot madaniyati, akademik halollik, tanqidiy fikrlash va mustaqil ilmiy qaror qabul qilish kompetensiyalarini ham rivojlantirishga xizmat qiladi. Shuningdek, ushbu yondashuv oliy ta'lim muassasasida ta'lim, ilm-fan va amaliyot integratsiyasini kuchaytirib, talabalar ilmiy faolligining sifat va natijadorlik ko'rsatkichlarini izchil oshirish imkonini beradi.

1-jadval

Talabalarining ilmiy-tadqiqot faoliyatini tashkil etishning takomillashtirilgan metodologik bosqichlari

Bosqich	Mazmuni	Asosiy vositalar	Natija
Diagnostik	Boshlang'ich tayyorgarlik va qiziqishni aniqlash.	So'rovnoma, diagnostik topshiriq, suhbat.	Individual trayektoriya belgilanadi.
Motivatsion	Ilmiy izlanish ahamiyati va akademik halollikni tushuntirish.	Seminar, uchrashuv, etik kodeks.	Ichki motivatsiya kuchayadi.
Metodik	Adabiyotlar sharhi, metod tanlash, ma'lumot yig'ish va tahlil qilishni o'rgatish.	Research skills moduli, mini-trening, raqamli bazalar.	Tayanch tadqiqot kompetensiyasi shakllanadi.
Loyihaviy	Mini-tadqiqot yoki amaliy loyiha bajarish.	Mentorlik, guruhli loyiha, laboratoriya, amaliy hamkor.	Muammo yechimiga yo'naltirilgan mahsulot yaratiladi.
Prezentatsion	Natijalarni taqdim etish va ommalashtirish.	Konferensiya, poster, tezis, maqola.	Akademik yozuv va muloqot rivojlanadi.
Refleksiv	Jarayon va natijani baholash, keyingi vazifalarni belgilash.	Rubrika, e-portfolio, mentor xulosasi.	Uzlüksiz takomillashuv ta'minlanadi.

Manba: muallif ishlanmasi.

Jadvalda ko'rsatilgan bosqichlar talabalarining ilmiy-tadqiqot faoliyati birinchi kursdagi qiziqish va axborot savodxonligidan boshlab, keyingi kurslarda metodologik tayyorgarlik, loyiha va nashr ko'rinishidagi natijalargacha rivojlanishini ko'rsatadi. Ushbu ketma-ketlik talabani bir

martalik topshiriqdan kompetensiyaga asoslangan ilmiy faollikka olib o'tadi.

Taklif etilayotgan metodologiyaning muhim afzalligi shundaki, u universitetning ichki sifatini ta'minlash tizimi bilan uyg'unlashadi. Talabalarining ilmiy-tadqiqot faoliyati bo'yicha

indikatorlar - konferensiya ishtiroki, maqola va tezislar, to'garaklar faolligi, loyiha natijalari, bitiruv ishlarining amaliy ahamiyati - kafedra va fakultet darajasida monitoring qilinishi mumkin. Bu esa resurslarni manzilli taqsimlash va zaif nuqtalarni tez aniqlash imkonini beradi.

Model fan xususiyatiga ko'ra variativ qo'llanishi mumkin: gumanitar yo'nalishlarda matn tahlili va komparativ yondashuvlar, tabiiy va texnik yo'nalishlarda eksperiment, modellashtirish hamda raqamli qayta ishlash kuchayadi. Ammo muammo qo'yish, manba bilan ishlash, akademik halollik va xulosa chiqarish kabi yadro elementlar barcha yo'nalishlar uchun umumiy bo'lib qoladi.

Xulosa va takliflar. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, oliy ta'limda talabalarning ilmiy-tadqiqot faoliyatini samarali tashkil etish metodologiyasini takomillashtirish zamonaviy universitet boshqaruvi, ta'lim sifati va ilmiy salohiyatni oshirishning muhim shartlaridan biridir. Talabani ilmiy-tadqiqot faoliyati alohida epizodik tadbirlar, tanlovlar yoki konferensiyalar bilan cheklanib qolmasdan, ta'lim jarayonining uzviy va tizimli tarkibiy qismi sifatida qaralishi zarur. Aynan shu yondashuv talabalarda ilmiy tafakkur, muammo qo'yish, dalillash, tahlil qilish, xulosa chiqarish va natijalarni akademik shaklda ifodalash kompetensiyalarini izchil rivojlantiradi.

Tahlillar asosida aniqlanishicha, talabalarning ilmiy-tadqiqot faoliyatini samarali yo'lga qo'yish kamida besh tayanch komponentning o'zaro uyg'un ishlashini talab etadi: normativ-institutsional asos, o'quv-metodik integratsiya, mentorlik va ilmiy hamkorlik, raqamli hamda axborot-resurs ta'minoti, monitoring va refleksiya. Ushbu komponentlar alohida-alohida emas, balki yagona metodologik tizim sifatida faoliyat yuritgandagina talabalar ilmiy izlanishlari sifat jihatidan yangi bosqichga ko'tariladi. Bunda ilmiy-tadqiqot faoliyatining mazmuni, tashkiliy mexanizmlari va baholash mezonlari o'zaro moslashtirilishi lozim.

Shuningdek, tadqiqot davomida talabalarning ilmiy faolligini oshirishda o'quv jarayoni bilan ilmiy izlanishlar o'rtasidagi uzviy bog'liqlik hal qiluvchi omillardan biri ekani asoslandi. Agar ilmiy-tadqiqot faoliyati kurs ishlari, amaliy topshiriqlar, loyiha ishlari, bitiruv malakaviy ishlari va ilmiy to'garaklar bilan uzviy bog'lansa, talabani tadqiqot olib

borish tajribasi bosqichma-bosqich shakllanadi. Bu esa kelgusida magistratura, doktorantura va amaliy innovatsion faoliyat uchun zarur bo'lgan fundamental ilmiy tayyorgarlikni yuzaga keltiradi.

Mazkur tadqiqot asosida quyidagi amaliy takliflarni ilgari surish mumkin. Birinchidan, oliy ta'lim muassasalarida talabalarning ilmiy-tadqiqot faoliyatini rivojlantirish bo'yicha fakultet va kafedra darajasidagi alohida yo'l xaritalari, ichki nizomlar hamda baholash indikatorlarini ishlab chiqish maqsadga muvofiq. Ikkinchidan, barcha bosqichlarda ilmiy izlanish elementlarini o'quv fanlari tarkibiga integratsiya qilish, ya'ni mini-tadqiqot, analitik esse, loyiha topshiriqlari va empirik kuzatuvlarni kengaytirish zarur. Uchinchidan, "ustoz-talaba-guruh-hamkor tashkilot" modeli asosida ko'p pog'onali mentorlik tizimini yo'lga qo'yish talabani ilmiy motivatsiyasi va natijadorligini sezilarli oshiradi.

To'rtinchidan, universitetlarda elektron kutubxonalar, xalqaro ilmiy ma'lumotlar bazalari, antiplagiat tizimlari, bibliografik menejerlar va ichki raqamli monitoring platformalaridan foydalanish imkoniyatlarini kengaytirish lozim. Beshinchidan, akademik yozuv, tadqiqot metodologiyasi, ma'lumotlar bilan ishlash, iqtibos keltirish madaniyati va akademik halollik bo'yicha qisqa muddatli modul-treninglarni muntazam tashkil etish talabalar ilmiy kompetensiyasini mustahkamlaydi. Oltinchidan, ilmiy faoliyat natijalarini faqat tayyor maqola yoki tezis bilan emas, balki jarayon indikatorlari asosida ham baholash tizimini joriy etish zarur.

Umuman olganda, talabalarning ilmiy-tadqiqot faoliyatini tashkil etish metodologiyasini takomillashtirish oliy ta'lim muassasasining ilmiy muhitini kuchaytiradi, akademik sifatni oshiradi va raqobatbardosh mutaxassis tayyorlashga xizmat qiladi. Bu yondashuv orqali talabalar nafaqat bilim oluvchi subyekti, balki yangi g'oya, tahlil va amaliy yechimlar ishlab chiquvchi faol ilmiy subyekti sifatida shakllanadi. Kelgusida mazkur yo'nalishda empirik ma'lumotlar asosida turli oliy ta'lim muassasalarida tajribasini qiyosiy tahlil qilish, shuningdek, sohalar kesimida talabalarning ilmiy-tadqiqot kompetensiyalarini baholash mezonlarini ishlab chiqish muhim ilmiy vazifa bo'lib qoladi.

ADABIYOTLAR

1. O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni. O'RQ-637-son, 23.09.2020.
2. O'zbekiston Respublikasining "Ilm-fan va ilmiy faoliyat to'g'risida"gi Qonuni. O'RQ-576-son, 29.10.2019.
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti. "Oliy ma'lumotli mutaxassislar tayyorlash sifatini oshirishda iqtisodiyot sohalarini va tarmoqlarining ishtirokini yanada kengaytirish chora-tadbirlari to'g'risida". 27.07.2017.
4. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Farmoni. "O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida". PF-5847-son, 08.10.2019.
5. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti. "Oliy ta'lim va ilm-fan sohasidagi ustuvor vazifalar ko'rib chiqildi". 22.01.2025.
6. Hodsdon L. Developing undergraduate research and inquiry: An EvidenceNet summary // *Advance HE*. 2009.
7. Ahmad Z., Cruz I. Undergraduate Research Experience Models: A Systematic Review of the Literature from 2011 to 2021 // *Teaching and Learning Inquiry*. 2022.
8. Bergamini T.P., Prado C., Tavares Silva F., va boshq. Research Skills Development in Higher Education Students // *Higher Learning Research Communications*. 2014.
9. Musthafa M.N.M.A., Sajila K.M. Reconsidering the Teaching-Research Nexus in Higher Education // *Higher Education for the Future*. 2014. Vol. 1, No. 2. P. 123-138.
10. Macheridis N. Students' experiences of the research-teaching nexus // *Tertiary Education and Management*. 2024.